

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA FONEMATIK ESHITISHNI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

**Karimova Mexriniso Djamshidovna**

Buxoro innovatsiyalar universiteti

Pedagogika, psixologiya va sport kafedrası o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20585044>

**Annotatsiya.** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishning dolzarb muammolari ko'rib chiqilgan hamda bu jarayonda o'yin texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi tahlil etilgan. Tadqiqot davomida o'tkazilgan eksperiment natijalariga ko'ra, maxsus tanlangan didaktik o'yinlar majmuasi bolalarda tovushlarni farqlash, fonematik tahlil va sintez ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi asoslangan. Olingan natijalar o'yin metodikasi an'anaviy mashg'ulotlarga nisbatan yuqori natija berishini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** fonematik eshitish, maktabgacha yosh, o'yin texnologiyalari, didaktik o'yin, nutq buzilishi, logopediya, tovush tahlili, korreksion ish.

**Аннотация.** В статье рассматриваются актуальные проблемы развития фонематического слуха у детей дошкольного возраста, а также анализируется педагогическая эффективность использования игровых технологий в этом процессе. По результатам проведённого эксперимента обосновано, что специально подобранный комплекс дидактических игр способствует значительному повышению навыков различения звуков, фонематического анализа и синтеза у детей. Полученные данные показывают, что игровая методика даёт более высокий результат по сравнению с традиционными занятиями.

**Ключевые слова:** фонематический слух, дошкольный возраст, игровые технологии, дидактическая игра, нарушение речи, логопедия, звуковой анализ, коррекционная работа.

**Annotation.** The article examines the relevant problems of developing phonemic hearing in preschool children and analyses the pedagogical effectiveness of using game technologies in this process. According to the results of the conducted experiment, it is substantiated that a specially selected set of didactic games significantly improves children's skills of sound discrimination, phonemic analysis and synthesis. The obtained data show that the game-based methodology yields higher results compared with traditional lessons.

**Keywords:** phonemic hearing, preschool age, game technologies, didactic game, speech disorder, logopedics, sound analysis, correctional work.

### Kirish

Jahonda maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish, bolalarning nutqiy rivojlanishini erta yoshdan qo'llab-quvvatlash hamda nutq buzilishlarining oldini olish bo'yicha ilmiy-amaliy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, bolaning to'g'ri va ravon nutqi shakllanishida fonematik eshitishning o'rni hal qiluvchi bo'lib, uning yetarli darajada rivojlanmaganligi keyinchalik o'qish va yozishni o'zlashtirishda jiddiy qiyinchiliklarga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik eshitishni samarali rivojlantirishning zamonaviy metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Fonematik eshitish — bu ona tilidagi tovushlarni quloq bilan idrok etish, ularni bir-biridan farqlash, ajratish va tahlil qila olish qobiliyatidir. Aynan shu qobiliyat soʻzlardagi tovushlarni toʻgʻri talaffuz qilish, ularni oʻrni va ketma-ketligini aniqlash uchun zamin yaratadi.

Mazkur koʻnikma yetarlicha shakllanmagan bolalarda tovushlarni almashtirish, tushirib qoldirish, soʻz tarkibini buzish kabi nuqsonlar kuzatiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi faoliyati oʻyin ekanligini hisobga olganda, korreksion-pedagogik jarayonda oʻyin texnologiyalaridan foydalanish eng tabiiy va samarali yondashuv boʻlib qoladi. Oʻyin bola uchun majburiyat emas, balki zavq manbai boʻlgani bois, u materialni ongli ravishda va kuchli motivatsiya bilan oʻzlashtiradi.

Fonematik eshitishni rivojlantirish muammosi logopediya va maxsus pedagogika fanida koʻplab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. D.B.Elkonin tovushli tahlil koʻnikmasini shakllantirishning bosqichli tizimini ishlab chiqib, fonematik idrok savod oʻrgatishning asosiy sharti ekanligini asoslagan. R.Ye.Levina nutq buzilishlarini bartaraf etishda fonematik jarayonlarning yetakchi oʻrnini koʻrsatib bergan.

G.A.Kashe, T.B.Filicheva va G.V.Chirkina maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqning fonetik-fonematik rivojlanmaganligini bartaraf etish boʻyicha korreksion ishlar tizimini taklif etganlar. Ularning ishlarida bolalarda tovushlarni farqlash koʻnikmasini bosqichma-bosqich shakllantirishga alohida eʼtibor qaratilgan.

Zamonaviy tadqiqotlarda oʻyin metodikasi korreksion ishning eng samarali vositasi sifatida eʼtirof etilmoqda. Didaktik oʻyinlar bolaning diqqatini uzoq vaqt ushlab turish, emotsional koʻtarinkilik yaratish va takroriy mashqlarni zerikarli qilmaslik imkonini beradi.

Shu bilan birga, oʻyin texnologiyalarini fonematik eshitishni rivojlantirishga maqsadli yoʻnaltirilgan holda qoʻllash, ularning samaradorligini eksperimental asoslash masalalari yetarlicha oʻrganilmagan.

Tadqiqot pedagogik eksperiment usuli asosida olib borildi. Eksperimentda 5–6 yoshli 48 nafar bola ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: tajriba guruhi (24 nafar) va nazorat guruhi (24 nafar).

Tajriba guruhida fonematik eshitishni rivojlantirishga yoʻnaltirilgan maxsus didaktik oʻyinlar majmuasi qoʻllanildi, nazorat guruhida esa anʼanaviy mashgʻulotlar davom ettirildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qoʻllanildi: ilmiy-metodik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; kuzatish va suhbat; fonematik eshitish darajasini aniqlovchi diagnostik topshiriqlar (tovushni soʻzdan ajratish, oʻxshash tovushli soʻzlarni farqlash, soʻzdagi tovushlar sonini aniqlash); pedagogik eksperiment va olingan maʼlumotlarni matematik-statistik qayta ishlash.

Korreksion ishda quyidagi oʻyin turlaridan foydalanildi: «Tovushni tut» (berilgan tovush eshitilganda chapak chalish), «Sehrlı xalta» (nomi maʼlum tovushdan boshlanadigan buyumlarni topish), «Zanjir» (oldingi soʻzning oxirgi tovushi bilan boshlanadigan yangi soʻz aytish), «Adashgan tovush» (soʻzdagi notoʻgʻri tovushni topish) hamda interaktiv kompyuter oʻyinlari.

### **Natijalar va ularning tahlili**

Eksperiment boshida ikkala guruhda ham fonematik eshitish darajasi taxminan bir xil — asosan past va oʻrta koʻrsatkichda boʻlgan.

Olti oylik korreksion ish yakunida oʻtkazilgan nazorat kesimi natijalari ikki guruh oʻrtasida sezilarli farqni koʻrsatdi (1-jadval).

**1-jadval***Eksperiment guruhlarida fonematik eshitish darajasining o'zgarishi*

<b>Fonematik eshitish darajasi</b>	<b>Tajriba guruhi (boshida), %</b>	<b>Tajriba guruhi (yakunida), %</b>	<b>Nazorat guruhi (yakunida), %</b>
Yuqori	12,0	41,7	20,8
O'rta	33,3	45,8	37,5
Past	54,7	12,5	41,7

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi ko'rsatkich 12% dan 41,7% gacha oshgan, past daraja esa 54,7% dan 12,5% gacha kamaygan. Nazorat guruhida ham muayyan o'sish kuzatildi, biroq u sezilarli darajada past bo'ldi: yuqori daraja faqat 20,8% ni tashkil etdi.

Olingan natijalar ishonchliligini tekshirish maqsadida Student t-mezoni qo'llanildi.

Hisoblangan qiymat ( $t=3,42$ ) tanqidiy qiymatdan yuqori bo'lib ( $p<0,05$ ), bu tajriba va nazorat guruhlarini natijalari o'rtasidagi farq tasodifiy emas, balki qo'llanilgan o'yin metodikasi ta'siri natijasi ekanligini tasdiqlaydi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'yin shaklidagi mashg'ulotlarda bolalar diqqati ancha barqaror bo'lib, ular topshiriqlarni qiziqish bilan bajardilar. Emotsional ijobiy muhit bolalarning nutqiy faolligini oshirdi va xatolardan qo'rqmasdan ishlash imkonini berdi.

**Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Maxsus tanlangan didaktik o'yinlar majmuasi bolalarda tovushlarni farqlash, fonematik tahlil va sintez ko'nikmalarini an'anaviy usullarga nisbatan ancha tez va mustahkam shakllantiradi.

Shu sababli, maktabgacha ta'lim muassasalarining amaliyotiga fonematik eshitishni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yin texnologiyalarini tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Bu nafaqat bolalarning nutqiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki ularni maktab ta'limiga, ayniqsa savod o'rgatish jarayoniga muvaffaqiyatli tayyorlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Эльконин Д.Б. Развитие речи в дошкольном возрасте. – М.: Изд-во АПН, 2018. – 240 с.
2. Левина Р.Е. Нарушения речи и письма у детей: избранные труды. – М.: АРКТИ, 2019. – 224 с.
3. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей дошкольного возраста. – М.: Айрис-пресс, 2020. – 224 с.
4. Каше Г.А. Подготовка к школе детей с недостатками речи. – М.: Просвещение, 2017. – 207 с.
5. Максаков А.И. Воспитание звуковой культуры речи у дошкольников. – М.: Мозаика-Синтез, 2019. – 64 с.
6. Shomurodova S.A. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021. – 176 b.

7. Gillon G.T. Phonological Awareness: From Research to Practice. – New York: Guilford Press, 2018. – 365 p.
8. Justice L.M., Pence K.L. Scaffolding with Storybooks: A Guide for Enhancing Young Children's Language and Literacy Achievement. – Newark: IRA, 2020. – 214 p.